

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Gulchehra G‘affarova

**MILLIY G‘OYA VA MILLATLARARO
MUNOSABATLAR**

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2024

**UO‘K: 37.092.33
KBK 74.6**

G‘affarova G. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “City of book”, 2024. – 260 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma yoshlarda jamiyat taraqqiyotining g‘oyaviy asoslarini teran idrok etib, nafaqat o‘z huquq va manfaatlarini anglashni, ayni paytda barcha fuqarolar oldidagi mas’uliyatni, inson sha’ni, qadru qiymati, huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini oliy qadriyat sifatida tan olish va e’tirof etish madaniyatini oshirishga qaratilgan. Unda ko‘p millatli jamiyatimizda millatlararo munosabatlarning ilmiy-amaliy masalalari va rivojlanish xususiyatlari, bu boradagi dolzarb muammo va vazifalar mohiyati yoritilgan.

Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan qator oliy o‘quv yurtlaridagi Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan “Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar” fanini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, undan barcha talabalar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

**f.f.d., prof. N.A.Nazarov,
f.f.n., dots. Sh.Tog‘ayev**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagи 314-sonli buyrug`iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-780-17-2

© G‘affarova G. 2024.
©“City of book”, 2024.

KIRISH

O‘zbekiston o‘z milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgach, bu yerda yashayotgan xalq o‘z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish kabi ezgu maqsadlarni qo‘ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan yangi jamiyatni barpo etish dolzarb vazifaga aylandi. Buning uchun esa bizga yot va begona g‘oyalar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalash, bu yo‘lda g‘oyaviy, mafkuraviy bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish taqozo etildi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq O‘zbekiston xalqi o‘z milliy g‘oyasi negizlariga tayangan holda rivojlanish yo‘lini tanladi. Milliy g‘oya yoshlarda vatanparvarlik xususiyatlarini yuksaltirish bilan bir qatorda, millatlararo munosabatlarning optimal rivojini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiyligi - jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan»¹. Demak, istiqlol sharofati tufayli yurtimizda millatlararo munosabatlar sohasida erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda milliy va diniy bag‘rikenglik xislatlarini yanada rivojlantirish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasidagi g‘oyat muhim vazifalardandir.

Ma’lumki, millatlararo totuvlik g‘oyasi — umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2022. –Б. 306.

taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqororlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bu g‘oya bir jamiyatda yashab yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlikning ma’naviy asosidir; dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi — xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir makon, bir Vatanda, oljanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi.

Sog‘lom milliylik barq urgan joyda umumbashariy fazilatlarning qadriga yetish ham ortadi, millatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar ham kamol topadi.

Milliy an'analar va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o‘z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo‘ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma’naviyatini chuqur his qilish darajasiga o‘sib chiqsa va o‘z milliy qadriyatini bemalol va beminнат namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lsa, milliy munosabatlarda do‘stona iqtisodiy va ma’naviy muloqotdan o‘zga niyat bo‘lmasa, ana shunda turli millatlarning ma’naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o‘sib boraveradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida tarixan shakllanib, o‘z tili va madaniyatiga ega turkiy etnik birliklarni tashkil etuvchi millatlarning mustaqil turmush tarzi va madaniyati g‘oyat terandir. Bunday teranlikning mohiyati shundaki, Markaziy Osiyo xalqlari shunday bir jannatmakon muhitda qaror topganki, ularning osmoni bir, dini bir, yulduzu oy, quyoshu sayyoralari bir, “Vatan” deb kindik qoni to‘kilgan maskanlar bir-biriga tutashib ketgan. Ana shunday jannatmonand mintaqada yashayotgan har bir kishi ushbu umumiyligi uyimiz tinchligi, barqarorligi va kelajagi uchun oddiy insoniy mas’uliyatni his etib, shu ezgu maqsad yo‘lida kamarbasta bo‘lishi, mintaqamiz, jumladan mustaqil O‘zbekistonimizning ham gullab yashnashiga zamin hozirlaydi. Bu esa baxt va farovonlikning asosiy garovidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev olib borayotgan insonparvar siyosat xalqlarimiz qalbida chuqur o‘rin egallabgina qolmay, jahon xalqlarining ham diqqat-markazida ekanligi bizda yuksak quvonch va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

1-Mavzu: «MILLIY G‘OYA VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR» FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1. «Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar» fanining maqsadi va vazifalari.**
- 2. Ijtimoiy va etnik birliklar, ularning shakllanish omillari.**
- 3. Millatlararo munosabatlar ayni vaqtda davlatlararo munosabatlar ekanligi.**

1. «Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar» fanining maqsadi va vazifalari

Hozir jahondagi mavjud 200 dan ziyod mamlakatlarda uch mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashaydilar. Ular besh yarim mingdan ortiq tillarda so‘zlashadilar. Bu tillarning aksariyati o‘z yozuviga ega emas. Milliy jarayonlarning eng xarakterli tomoni shundaki, insoniyat aql-zakovati yuksalgan sayin o‘zaro «assimilyatsiyalashish» tomon emas, balki o‘zlarining «men»ligini namoyish qilish, tasdiqlash sari jadal sur’atlar bilan harakat qilmoqda. Hali jahonda mavjud birorta millat, yoki elatlar, ular eng kam sonli bo‘lishlaridan qatiy nazar, ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan ko‘shilib ketgan emas, aksincha, ayrim millatlar qashshoqlikning og‘ir kulfatlarini o‘z boshlaridan kechirishga majbur bo‘lsalar-da ozodlik, erkinlik kabi qadriyatlaridan voz kechmaganlar. Ular ozod, mustaqil yashab, o‘z urf-odat, an’ana va qadriyatlarini muqaddas bilib, e’zozlab kelganlar.

Milliy munosabatlar deganda, turli millat va elatlarning iqtisodiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda sodir bo‘ladigan o‘zaro ichki va tashqi aloqalari majmuuni tushunmoq kerak.

Bunday aloqalar, ko‘p millatlar yashaydigan bir mamlakat ichki hayotida yoxud turli mamlakatlarda yashaydigan millatlar o‘rtasida amalga oshadi. Alovida millatlar o‘rtasida amalga oshadigan aloqalar millatlararo munosabatlarni tashkil qiladi. Bugungi kunda jahonda aholisining tarkibi faqat birgina millatdan tarkib topgan mamlakatni yoki davlatni topish qiyin. Xuddi shuning uchun ham mamlakatlar, davlatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan turli sohalardagi aloqalarda ularda yashayotgan millatlarning do‘stona munosabatlari har qanday davlat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ana shu omil qanchalik mustahkam bo‘lsa, davlatlar o‘rtasida olib boriladigan turli

sohalardagi aloqalar ham shu darajada mustahkam bo‘ladi va har ikki tomon kutayotgan natijalarni beradi.

Ko‘p millatli mamlakatlarda milliy munosabatlarni uyg‘unlashtirish shu mamlakatda barqarorlik va taraqqiyotning kafolati, uning istiqbolini ta’minlovchi asosiy jihatdir. Chunki har qanday davlatda milliy nizolar va ziddiyatlar o‘sha davlatda barqarorlikning barbod bo‘lishiga va oxir-oqibatda yemirilishiga olib keladi. Shuning uchun, har qanday mamlakatda, jumladan mustaqil O‘zbekistonda ham milliy munosabatni uyg‘unlashtirib borish, davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Sobiq SHO‘rolar tuzumining fojeasi shunda ediki, o‘z manfaatlarini milliy manfaatlardan umtun qo‘yish hisobiga amalga oshirib keldi. YA’ni, milliy omilning kuchi, qudratini nazar-pisand qilmadilar va sinfiy manfaatlarni ilgari surish orqali o‘z hukmronligini abadiylashtirmokchi bo‘ldilar. Ular zo‘ravonlik bilan turli millatlarni yaqinlashtirish orqali «yagona sovet xalqi»ni shakllantirish va keyingi bosqichda butun yer yuzida ulug‘ millatlarni vujudga keltirib, boshqa millatlarni gegemon millat tarkibiga singdirib yuborishni maqsad qilgan edilar. Ularning tabiiylikdan sun’iylik sari boshlovchi bunday hatti-harakatlari sobiq sovetlar tizimini yemirdi. Albatta, bu jarayonda zo‘ravonlikka asoslangan nazariya va uning o‘zga millat va elatlar manfaatlarini hisobga olmasdan amalga oshirishga bo‘lgan urinishlar sovetlar tizimi halokatini tezlashtirdi.²

Ayni paytda o‘z ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra, “milliy munosabatlar” tushunchasi bir millatga mansub kishilar hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy jarayonlardagi o‘ziga xos aloqadorlik va munosabatlarni ham ifodalaydi. Bu munosabatlar: 1) bir millat yoki milliylik doirasida amal qiluvchi o‘ziga xos etnik xarakter kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ular alohida shaxslar, turli ijtimoiy guruqlar o‘rtasidagi munosabatlarda; 2) muayyan millat yoki etnik birlikga mansub kishilarning borliqdagi narsa, hodisa, jarayonlarga nisbatan o‘ziga xos yondoshuv va munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Milliy totuvlikka e’tibor qaratish taraqqiyotni ta’minalashdagi bosh omil sifatida muhim. “Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz yetakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘zlarining o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishga, har birimizda ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashda salmoqli hissa

² Қаранг: Маънавият: асосий тушунчалар изохли лугати. -Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаба ижодий уйи, 2009. –Б. 399.

qo‘shmoqda”³. Ushbu madaniy markazlar o‘z madaniyatining ijobiy qirralarini targ‘ib etish bilan bir qatorda, O‘zbekiston jamiyatida milliy totuvlikning ta’minlanishida ham yetakchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2022 yilning oxiriga kelib mamlakatimiz aholisining umumiyligi soni o‘ttiz olti millionga yetdi. O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, shu jumladan, o‘zbeklar (80,0%), qoraqalpoqlar (2,2%), tojiklar (4,9%), ruslar (3,8%), qozoqlar (3,6%), tatarlar (1,0%), qirg‘izlar (0,9%), koreyslar (0,6%), ukrainlar (0,3%) va boshqa millat vakillari (2,7%) istiqomat qilayotgan ekan, ularning faoliyatini yagona maqsad sari yo‘naltirish ham mamlakatimizda millatlararo munosabatlar sohasida milliy g‘oyaning konseptual ahamiyatini ko‘rsatadi.

Jamiyat hayotini demokratiyalashtirish, gumanistik tafakkurni chuqurlashtirish sharoitida, axloqiy qiyofani saqlagan holda, barcha millatlar va elatlarning o‘ziga xosligi-yu, manfaat, qiziqishlariga doimo jiddiy e’tibor qaratib, xalqlar do‘stligini mustahkamlash, yoshlarni baynalminallik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘llarini qidirmoq bugungi jadal taraqqiyot sharoitida o‘ta muhim.

Barcha millat vakillariga hurmat bilan karash, millatparvarlik, milliy mentalitetga hurmatda bo‘lishi insonning komilligini belgilab beruvchi xususiyatlardan hisoblanadi. Bu boradagi nazariy va amaliy masalalarni o‘rganish “Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalarida muhim o‘rin tutadi.

Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar fanining o‘z maqsad va vazifalari bordir. Bu fanning asosiy maqsadi milliy g‘oya va millatlararo munosabatlarning o‘zaro aloqadorliklari mohiyatini ilmiy yoritish orqali talaba-yoshlarda milliy g‘oya asosida millat, millatlararo munosabatlarning jamiyat hayoti va taraqqiyoti jarayonida qanday o‘rin tutayotganligi to‘g‘risida haqqoniy bilim va tasavvurlarini yuksaltirishdir. Har bir inson ko‘pmillatli polietnik davlatlarda barcha millatlar manfaatiga mos keladigan milliy siyosat zarurligini anglashi va his qilishi kerak. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda barcha millatlarning milliy qadriyatlari tiklanayotganligini, bugungi kundagi jadal taraqqiyot siyosati turli millatlar manfaati uchun xizmat qilayotganini barcha fuqarolar ongiga singdirib borish ham fanning asosiy maqsadlarini tashkil etadi.

³ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том 1. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. –Б. 297.

Ayni paytda milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan millatlararo totuvlik g‘oyasining jamiyatdagi o‘rni qanday ekanligini yoritib berish ham bu fan maqsadlari sirasiga kiradi.

«Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

-talaba-yoshlarda milliy g‘oyaning millatlararo munosabatlardagi o‘rni, roli va ahamiyati hamda ular o‘rtasidagi aloqadorliklar to‘g‘risida ilmiy bilim-tasavvurlar hosil qilish;

-har bir millat vakilida milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish;

-millatlararo munosabatlarning takomillashib borishi jamiyat taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatishi muqarrar ekanligini anglatish;

-millatchilik, milliy ziddiyatlar – tinchlik va barqarorlikka asosiy tahdidlardan biri ekanligini tushuntirish;

-har bir insonda boshqa millatlarga nisbatan ishonch, o‘zaro hurmat tuyg‘usini shakllantirish;

- Yangi O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar siyosatining mazmun-mohiyatini ilmiy yoritish orqali yoshlar tafakkurini yuksaltirish.

Ushbu jihatlar yoshlar ongida milliy g‘oya asosida millatlararo munosabatlarni takomillashtirib borishni ta’minlaydiki, ko‘p millatli mamlakatlarda har qanday taraqqiyotning asosida ushbu omil yotadi.

2. Ijtimoiy va etnik birliklar, ularning shakllanish omillari

Ijtimoiy birlik (urug‘) – bir ota-onadan tarqalgan qon-qarindoshlarning uyushuvi natijasida shakllangan jamoa. Urug‘chilik insoniyat tarixining qadimgi davriga xos bo‘lib, yashash uchun kurash va tashqi dushmanlardan saqlanish maqsadida kishilarning qarindoshchilik asosida birlashuvi natijasida paydo bo‘lgan. Urug‘larga ular orasidan chiqqan, qondoshlari davrasida hurmat va obru-e’tiborga ega bo‘lgan oqsoqollar boshchilik qilgan. Etnik tarixdan ma’lumki, o‘zbeklar 92 ta yirik urug‘lar hosilasidan iborat, chunonchi: qo‘ng‘irot, mang‘it, laqay, ming, barlos, jaloyir, nayman, qurama, qipchok, va b.lar. Har bir kishi uchun o‘z ajdodlari kimlar ekanligini bilish maksadida qaysi urug‘dan ekanligini aniqlash ayb emas, qolaversa bu etnik birliklarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib, ular faoliyatini umummiliy manfaat sari yo‘naltirish milliy taraqqiyotni ta’minlovchi bosh omildir. Lekin, urug‘chilikka mukkasidan berilib, faqat o‘z urug‘i manfaatini ko‘zlab, boshqalarni kamsitish, atrofiga o‘z yaqinlarini to‘plab, asosiy urg‘uni qarindosh-urug‘chilikka berib, atrofdagilarni

mensimaslik taraqqiyotimizga zid hodisa sifatida millat birligiga xavf tug‘diradi.

1-chizma



Real amal qiluvchi kishilar yig‘indisi bo‘lib, ular jamiyat hayoti bilan bog‘langan qandaydir umumiy belgilarni bilan xarakterlanadi.

Etnik birlik – kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Etnik birlikka ko‘p jihatdan bir-biriga yaqin urug‘ va etnik jamoalar birlashadi. Etnik birlik millat shakllanishining uchinchi bosqichi, belgisi. Kadimda kishilarning etnik birlik bo‘lib, bir hududda yashashlari ular orasida umumiy manfaatdorlik, qon-qarindoshlik his-tuyg‘ularini kuchaytirgan. Etnik birliklar, kuchli qabilalarning kuchsiz qabilalarni o‘ziga buysundirishi va ular bilan aralashib ketishi natijasida ham shakllangan. Etnik birlik o‘z qiyofasini saqlab kolishi, rivojlanib millat darajasiga ko‘tarilishi uchun o‘ziga tegishli bo‘lgan hududga ega bo‘lmog‘i lozim.

Millat tushunchasi etnik guruh etnik birlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq va ajralmasdir. Etnik birlik - ma’lum bir ijtimoiy tizimda yuzaga kelgan etnik uyushma aniq va xalqqa nisbat ishlataladigan atamadir. Etnik birliklar madaniyat va qadriyatlari yaqin bo‘lgan urug‘lar birligidan hosil bo‘lishi etnogenezda ko‘p kuzatiladigan hodisa. Lekin, madaniyat va qadriyatlari farq qiladigan geterogen guruhrar ham obyektiv va subyektiv sabablar tufayli bir etnik birlikni tashkil etib, madaniyat va qadriyatlarning ijobjiy tomonlarini bir-biriga singdirib borishlari ham mumkin. Buni biz 2-chizma va 3-chizmalar orqali ham ko‘rshimiz mumkin.

2-chizma



Jamiyatdagi rang-baranglik, turlichalilik darajalarining ko‘rsatkichlari yig‘indisini ifodalaydi.



Bu o‘zlarining umumiyligini anglagan va umumiyligi madaniy – psixologik xususiyatlariga ega bo‘lgan hamda muayyan xududda tarixiy tarkib topgan kishilar yig‘indisidan iborat

Etnik birliklarning tarixiy hududdan boshqa joyga turli sabablar bilan borib qolib, o‘sha yerda muqim yashab qolgan jamoalari ko‘pincha milliy guruhlarga birlashgan bo‘ladilar. Ular muayyan mamlakat uchun yoki ma’lum davlatning ayrim mintaqasi uchun mahalliy bo‘lmagan millat va elatning kichik bir bo‘lagidir. Milliy guruhlar siyosiy sabablar tufayli ham shakllanishi mumkin. Davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning o‘zgarishi natijasida u yoki bu xalqning ma’lum bir bo‘lagi o‘z o‘zagidan ajralib qolishi mumkin. Masalan, Rossiya bilan Xitoy o‘rtasidagi shartnomalar (1860 yil) asosida chegaralar o‘rnatalishi natijasida qozoqlar va qirg‘izlarning bir qismi Xitoy hududida qolib ketgan. Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi kelishuv (1895 yil) asosida Afg‘oniston chegaralari belgilanib, o‘zbek, tojik, turkmanlar yashaydigan hududning bir qismi bugungi Afg‘oniston tarkibida qolib ketgan. Milliy guruhlarni o‘z tarixiy hududlardan ko‘chib kelgan yoki ko‘chirib kelgan etnik jamoalar ham tashkil etishi mumkin. O‘zbekistonda ham mahalliy millatga mansub bo‘lmagan milliy guruhlar mavjud bo‘lib, har bir ijtimoiy-tarixiy davrning o‘ziga xos xususiyatlari natijasida kelib o‘rnashib qolganlar.

Bundan tashqari deyarli ko‘pchilik davlatlarda bir-biri bilan kuchsiz aloqada bo‘lgan bir necha ming yoki bir necha yuz kishidan iborat o‘zgalardan farqli tilda so‘zlashadigan kishilarning kam sonli birlashmalari ham mavjud. Ular etnik guruhlar deyiladi. Masalan O‘zbekistonda 258 dan ortiq ingushlar, 140 dan ortiq gagauzlar va shu kabi etnik guruhlar ham mavjud.

Taniqli adib Chingiz Aytmatov "o‘z tarixini, o‘zligini bilmagan xalq manqurtga aylanadi", degan edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning milliy o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishi o‘sdi. Natijada, ajdodlar merosiga munosabat, milliy tuyg‘u, millat sha’ni kabi masalalar kishilar tafakkuridan o‘rin ola boshladi. Millatimiz vakillariga xos bo‘lgan qadriyatlar e’tirofi milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq bo‘lib, bu hech qachon boshqa millat va xalqlar g‘ururini kansitish hisobiga emas, balki ularning har

birining noyobligi, o‘z o‘rni, obro‘-e’tiborini joy-joyiga qo‘yish orqali amalga oshishi lozimligi doimo milliy tafakkurga singdirilib kelindi.

O‘zbekiston ko‘p millatli polietnik davlat bo‘lganligi uchun ham milliy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha etnik guruuhlar, elatlar, millatlarning bir-birlari bilan munosabatlari yaxshilanib bormoqda. Mamlakatning ko‘p millatli xalqi – “O‘zbekiston – umumiyligi”, shiori ostida mamlakatimiz kelajagining buyukligini ta’minlab kelmoqda. Bunday umummilliy, jipslashtiruvchi maqsad ijtimoiy hamfikrlikning, davlat va jamiyatni rivojlantirish strategiyasining asosi bo‘lib qoldi. Bugun, respublika mustaqilligi va suverenitetining chorak asrlik davridan keyin ham jamiyatni jipslashtirishga qodir bo‘lgan milliy g‘oyalar hamda vazifalarning ahamiyati juda katta bo‘lib, jamiyatning polietnik mohiyatini belgilashi bilan bir qatorda milliy taraqqiyotning optimal rivojini ham ta’minlab boradi.

3. Millatlararo munosabatlar ayni vaqtda davlatlararo munosabatlar ekanligi

Ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lgan va uzoq vaqtlar davomida shakllanib kelgan millatlar bir-birlari bilan o‘zining turmush tarzi, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, marosimlari va boshqa xususiyatlari bilan farq qilib kelgan.

Bir millatning boshqa millatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarini hurmat qilishi ularga yaxshi munosabatda bo‘lishlari tinchlik totuvlikning negizi bo‘lib kelganligi hech kimga sir emas. Boshqa xalqlar singari o‘zbek xalqi ham doimo barcha millat vakillarini hurmat qilib millatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni e’zozlab kelgan. Millatlar o‘rtasidagi bunday munosabatlar mintaqamiz taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatib kelgan. Turli millatlar o‘rtasidagi hamjihatlik, uyg‘unlik, do‘stona munosabatlar ijtimoiy taraqqiyotning jadallashtirish omillaridan biridir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlarda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari faol ishtirok etib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barcha millat vakillarining ongi va qalbiga – shu aziz Vatan barchamizniki, degan

konseptual tamoyilni singdirish orqali ularni buniyodkorlik va yaratuvchilik ishiga safarbar etish davlatimiz olib borayotgan siyosatda alohida o‘rin tutib bormoqda. Bugungi kunda Respublikamizda jadal taraqqiyot sari odimlar tashlanib, yaqin o‘tmishda qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarimizda yuzaga kelgan bo‘shliqlar to‘ldirilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan mintaqamiz xalqlari o‘zaro tinch-totuv, do‘sst va yaxshi qo‘shnichilik ruhida yashash lozimligi g‘oyasi ilgari surilmoqda. Bu o‘rinda mamlakatimiz rahbari: “Biz – qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar va o‘zbeklar, go‘zal Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillari birgalikda tinch-totuv, do‘sst-inoq bo‘lib yashashimiz taqdirning o‘zi tomonidan belgilab berilgandir”⁴, - degan edilar.

Sovet tuzumi olib borgan milliy siyosatdagi xatoliklar ko‘plab millatlarning mintalitetiga zarar keltirdi. Oqibatda XX asrning oxirida sobiq sovet davlati hududida milliy mojarolarning yuzaga kelishi ko‘zga tashlandi. Boltiq bo‘yi, Dnestr bo‘yi respublikalari, Sumgait, Olma-Ota, Tog‘li Qorabog‘, Xo‘jayli (Ozarboyjon) voqealari milliy zaminda ro‘y bergen mudhish hodisalar sifatida millatlararo munosabatlar inqirozini namoyon etdi.

Sovet davlati hukmronligining so‘ngi yillarda ro‘y bergen eng murakkab ahvol, bu – sovet davlati milliy siyosatida yuzaga kelgan qaltis vaziyat bo‘ldi. Aslida Sovet tuzumi mavjud bo‘lgan vaqt davomida hukmronlik qilgan kommunistik ideologiya sharoitida millatlararo munosabatlar borasida adolat, erkinlik, teng huquqlilikka asoslangan barqarorlik mavjud bo‘lmay, ma’muriy buyruqbozlik yo‘li bilan tashkil etilgan sotsialistik respublikalar ittifoqining birligi sun’iy qoliplar ustiga qurilgan edi. Shu bois, formatsiyalashgan jamiyatlar g‘oyasini ilgari suruvchi sobiq tuzum sharoitida kommunizm jamiyatida barcha millatlar qo‘shilib ketadi, degan soxta shiorni mutlaq haqiqatga aylantirib olgan siyosiy ma’muriyat faoliyatida millatlararo munosabatlar borasida shovinistik ruh yaqqol namoyon edi.

Mustaqillikning ilk yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi ham milliy mojarolar kuchayishi ehtimoli ustun bo‘lgan mintaqalardan biriga aylandi. Qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi qurolli mojarolar salbiy illat sifatida Markaziy Osiyodagi umumiy taraqqiyotga ta’sir etadi.

⁴ Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Том 2. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. – Б. 356.

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 20 23 yil "17" iyul dagi "314"-sonli buyrug'iiga asosan

G.G.GAFFAROVA

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

60112100 - Ta'lif yo'naliishi: Milliy g'oja, ma'naviyat asoslari va huquq

(ta'lif yo'naliishi (mutaxassisligi))

ta'limi

ning
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

MILLIY G'OJA VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR

(o'quv adabiyyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



I.Abduraxmonov

No 435589124297238372